



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA  
XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**XALQARO ILMIIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



**2025-yil 18-oktabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**

**2025-yil 18-oktabr**

**Toshkent – 2025**



**POLOVES-QIPCHOQ TILLARI MAISHIY LEKSIKASI MILLIY  
IDENTIFIKATSIYALASH MEZONI SIFATIDA  
HOUSEHOLD LEXICAN VOCABILITIES OF THE POLOVIAN-  
KIPCHOK LANGUAGES AS A CRITERIA OF NATIONAL  
IDENTIFICATION**

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/MXXI5016](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/MXXI5016)

**Bo'ronov Anvar Qoraboyevich**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),  
A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili  
va adabiyoti universiteti  
[musannifkitoblar@gmail.com](mailto:musannifkitoblar@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Poloves-qipchoq tillari VII – XV asrlar davomida Xazar va Oltin O'rda davlatlaridagi madaniy muhit ta'sirida Qirim va Shimoliy Kavkazda shakllangan. XV asrdan keyin bu hududda Usmonli turklar ta'siri kuchaygan. Shu sabab, so'zlashuv tilida o'g'uz dialektining ta'siri kuchli. Diniy-maishiy leksikada xalqlarning diniy mansubligi muhim o'rin tutadi. Qirimchaq va qarayimlar diniy marosimlarda ishlatiladigan leksikada, shuningdek, predmetlar va qisman ornamentlarni nomlashda gebraizmlardan foydalanadi. Arman-qipchoq tilida esa gebraizmlar bilan birga slavyancha va armancha so'zlar ham ishlatilgan. Qumiq, qorachoy-balqar tillarida qipchoq leksikasi ko'proq saqlangan.*

*Qipchoq leksikasi uy-joy, idish-tovoq, oziq-ovqat, kiyim-kechak, ayniqsa ornamentlarning nomlanishida faol qo'llaniladi. Bu esa, poloves-qipchoq tillarining rang-barang dialektal manzarasida uning negizi qipchoq tili ekanini yaqqol ko'rsatib turadi. Mazkur maqolada muallif, dini va turmush tarzi turlicha bo'lgan poloves-qipchoqlarining maishiy leksikasini tahlil qilish orqali, ushbu tillarning barchasi tarixan o'lik qipchoq tili bilan bog'liqligini isbotlashga uringan.*

**Kalit so'zlar:** *poloves-qipchoq, qirimchaq, qarayim, qirimtatar, qumiq, qorachoy-balqar, maishiy leksika.*

**Annotation:** *The Polovtsian-Kipchak languages were formed in Crimea and the North Caucasus in the 7th–15th centuries under the influence of the cultural environment of the Khazarian and Golden Horde states. After the 15th century, the influence of Ottoman Turkey increased in the region. For this reason, the spoken language is largely assimilated by elements of the Oghuz dialect. The religious affiliation of peoples occupies an important place in the religious and everyday vocabulary. Krymchaks and Karaites use Hebraisms in the vocabulary used in religious ceremonies, as well as in naming objects and ornaments. However, along with the Hebraisms, Slavic and Armenian words were used in the Armenian-Kipchak language. The Kipchak vocabulary is mostly preserved in the Kumyk and*



*Karachay-Balkarian languages. The Kipchak vocabulary is actively used in naming housing, dishes, food, clothing, especially ornaments. This is evident in the colorful dialect landscape of the Polovtsian-Kipchak languages, which is based on the Kipchak language. In this article, the author analyzed the everyday vocabulary of the Polovtsian Kipchaks, whose religion and lifestyle differ from each other, and tried to prove that all these languages are historically related to the dead Kipchak language.,*

**Keywords:** *Polovtsian-Kipchak, Krymchak, Karaite, Kirimtarian, Kumyk, Karachay-Balkarian, everyday vocabulary.*

Tilning leksik tizimini to'laqonli o'rganishda maishiy leksika muhim o'rin tutadi. Chunki, maishiy leksikada xalqning kundalik turmush tarzida eng faol qo'llaniladigan so'zlar mujassamlangan. Turkiy leksika, xususan poloves-qipchoq tillari lug'atidagi maishiy leksikaning salmoqli qismini o'z qatlam so'zlar tashkil qiladi. Bundan tashqari, maishiy leksikada madaniy-tarixiy kontekst va etnik kolorit o'z aksini topgan. Ularni tadqiq qilish, tillarning tarixan qaysi til guruhi yoki oilasi bilan bog'liqligini aniqlash imkonini beradi.

Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi K.M. Musaev[Mусаев, 2003: – 347], E. Abdullaeva[Абдуллаева, 2013: 145], A. Appoev[Аппоев, 2019:205-208] kabi o'nlab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, qarayim leksikasi bo'yicha K.M. Musaev[Mусаев, 2003: – 347], V.Z. Tiryaki[Тирияки, 2007:214], B.Z. Levi[Леви, 2005:148], qirimchaq leksikasi bo'yicha D.I. Rebi[Реби, 2004:224], V.M. Achkinazi[Ачкинази, 1991: 9-10], qirimtatar leksikasi bo'yicha S.M. Useinov [Усеинов, 2015: 232], A.M. Emirova[Эмирова, 2017: 264], A. Mametov[Меметов 2012:211], qumiq leksikasi bo'yicha S.Sh. Gadjieva[Гаджиева, 1960:27-28], N.Э. Gadjiaxmedov[Гаджихмедов, 2015:350], J.M. Xangishiev [Хангишиев, 1989: 81], qorchoy-balqar leksikasi bo'yicha U.B. Aliev[Алиев, 1972:146], I.M. Otarov[Отаров, 1996: 220], A.M. Appaev[Аппаев, 1986:180], A-M.X. Batchaev[Батчаев, 2000:160], S.K. Bashieva[Башиева, 1993:184], J.M. Guzeev[Гузеев, 2006: 294] va boshqa olimlar tadqiqot olib borgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasini semantik tahlil qilish uchun *uy-joy, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, ornamentlarning nomlanishini* tahlil qilish o'rinli bo'ladi. Chunki, maishiy leksikaning aynan shu qismida o'z qatlam so'zlar yaxshiroq saqlangan va ular asosan qipchoq va o'g'uzcha so'zlardan tarkib topgan bo'lib, areal xususiyatlarga yoki talaffuzga ko'ra farqlanishi mumkin. Shu bilan birga, qarayim, qirimchaq, qirimtatar va qisman arman-qipchoq tilida Qirim va shimoliy Qoradengiz arealiga, qorachoy-balqar tilida Kavkazning shimoliy-g'arbiy arealiga, qumiq tilida shimoliy-sharqiy arealiga xos bo'lgan mushtarak maishiy leksika shakllangan. Maishiy so'zlarning nomlanishida diniy mansublik ham ta'sir ko'rsatgan.



**Uy-joy**, diniy, ma'muriy va boshqa binolarning nomlari bilan bog'liq leksikada ob'ektlarning diniy, etnik, geografik xususiyatlari yoki ijtimoiy-siyosiy omillar ham muhim o'rin tutadi. Misol uchun, yahudiylik dinidagi qaraimlar o'z ibodatxonasini *sinagoga* emas, balki qadimgi yahudiy tilida *kenessa*, qirimchaqlar turkiyda *qaal*(qa'la) deb atashadi. Arman-qipchoq tilida esa cherkov armancha yekeghets'i(Եկեղեցի) emas, balki turkcha yig'övi(Yig'yevi Tenrining – Tengrining yig'in evi)[Гаркавец, 2010:1714.] deb ataladi. Yig'öv(yig'in uyi) “Kodeks kumanikus” da ham aynan shunday qo'llanilgan[Гаркавец, 2006:17]. Bundan ko'rinadiki, Oltin O'rda hududlarida cherkovlarni turkiy tilda “Tangrining yig'in uyi” deb atash holati faqat arman-qipchoq tiliga xos emas. Qirimtatarlarda masjidni *jam'i*, qumiqchada *mejrit*, qorachoy-balqar tilida *mejit* deb atashadi. Qirimtatarlarda masjidning *jam'i* atalishi usmonli turk tilining ta'siri bilan bog'liq. Ma'muriy binolarning nomlanishida esa ko'proq ijtimoiy-siyosiy omillars sabab o'zashgan ruscha leksika qo'llaniladi: *vokzal, port, aeroport, universitet, kollej, sud, prokuratura, senat va h.k.*

*Uy* so'zi “Devonu lug'otit turk”da *ew*[Кошғарий, 1967:36] shaklida berilgan bo'lib, o'g'uzchada ayni shakl, qarluq va qipchoq tillarida *uy*, chuvash tilida *jurt* shakli qabul qilingan. Poloves-qipchoq tillarida ularning barchasi ko'llaniladi. Jumladan, qarayim, qirimtatar, arman-qipchoq tillarida *ew*, qirimchaq tilida *yuv*, qorachoy-balqar tillarida *yuy*, *jurt*, qumiq tilida *uy* yoki *odjaq(o'choq)* so'zi ishlatiladi. Qarayim, qirimtatar, arman-qipchoq tillariga *ew* so'zi usmonli turkchasidan o'zlashgan. Ammo, qirimtatar tilining no'g'ay-cho'l shevasida hozirgacha *uy* shakli ishlatiladi. Qirimchaq tilidagi *yuv*, qorachoy-balqar tillaridagi *yuy* so'zlarida *y* tovushining orttirilishi ushbu tillarning fonetik xususiyatlari bilan bog'liq. Xususan, qorachoy-balqar tillarida *u* tovushlari o'rniga *yu* qo'llaniladi: *uzum – yuzyum, ulush – yulyush, uch – yuch, uchinchi – yuchyunchi.*

Barcha qipchoqlar qatori Qoradengizbo'yi va Shimoliy Kavkazda ham o'tovlardan foydalanilgan. Qumiqlar, qorachoylar va balqarlarning tog' hududlarida yashaydigan aholisi uylarini toshdan qurishgan. O'tovlardan esa asosan qirimdagi cho'l no'g'aylari, Shimoliy Kavkaz tog'larining etaklarida yashaydigan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi ellar foydalanishgan. Ular asosan uch turdagi o'tovlardan foydalanishgan:

1. *Terma*. Bu o'tovlar ko'chish paytida yig'ib olish yoki qaytadan terib hozirlash uchun qulay bo'lgan. Shuning uchun “terma uy” deyilgan.

2. *O'tov*. O'tovlarning asosiy xususiyati, boshqa o'tovlarga nisbatan yengilligi va hajmining ixchamligida. Ularni ko'chish paytida hech qiyinchiliksiz yig'ib, aravaga solib, ko'chib ketish mumkin bo'lgan.

3. *Uy*. Uylar yangi uylangan kelin-kuyovlar uchun qurilgan [<https://www.academia.edu/714471283>].

Hovli so'zi o'rnida qarayim, qirimchaq, qirimtatar, arman-qipchoq tillarida *azbar*, qorachoy-balqar va qumiq tillarida *arbaz* so'zi ishlatiladi. Hovli so'zi poloves-qipchoq tillari orasida faqat qirimtatar tiliga o'zbek tili orqali o'zlashgan.



Buning sababi, 1945-yilda qirimtatar xalqi O'zbekistonga surgun qilingan va 1990-yillardan keyin yana Qirimga qaytishgan.

**Idish-tovoq.** O'rxun bitiklarida idish-tovoq *ma'nosida idish*[Кудабергенев, 1982: 213], "Devonu lug'otit turk"da *qa*[Кошғарий, 1967: 339]so'zi qo'llanilgan. Idish-tovoq hozirgi turkiy tillarda juft so'z shaklida ishlatiladi: o'zbek tilida *idish-tovoq, idish-oyoq*[ЎТИЛ, 2008:174], oltoy tilida *qazan-ayaq*, hakas tilida *idiss-xamis*[Номинханов, 1948:24], *ayaq-qalbaq*[Алтайско-русский словарь, 2018:127], turkman tilida *qap-qach*[Атаниязов, 1985: 256], qozoq tilida *idis-ayaq, ayaq-tabaq*[Гаркавец, 2021: 151.]. Poloves-qipchoq tillarida, xususan arman-qipchoq tilida *ushag'-töväg', chanag'-ayag'*[Гаркавец, 2010: 204, 367], qumiq, qorachoy-balqar tillarida *ayaq-qashiq*[Отаров, 2024: 46-52], qirimtatar tilida *savut-saba, chanaq(tovoq)-chyolmek*[Русско-кримскотатарский словарь:<https://classes.ru/all-crtatar/dictionary-russian-crtatar-term-6883.htm>] kabi juft so'zlar faol qo'llaniladi. Qirimchaq, qarayim tillarida esa idish-tovoqni ifodalovchi juft so'z yo'q. Qirimchaq tilida *sag'it*[Ачкенази, 2019: 178], qarayim tilida *savut*[Мысаев, 2003: 155, 206, 225] qo'llaniladi. Э.Севортыanning fikricha *sag'it, sovut* variantlari mo'g'ul tilidan o'zlashgan. Chunki, mo'g'ul tilida "sav" idish ma'nosini beradi[Севортыан, 2003: 474].

"Devonu lug'otit turk"da tilga olingan *qa(qo)* o'zakli leksemalar idish ma'nosida kelishi aniq va bu poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasida ham ko'zga tashlanadi: *qazan, qashiq, qapqa*(chelak), *qabaq*(qovoq), *qalach*(cho'mich), *qapchug'*(qapchiq), *qalaq*(kurakcha), *qaarg'uch*(tova), *qalip*(qolip) kabi so'zlar lug'atlarda saqlangan.

**Kiyim-kechaklar.** Kavkaz va Qirim xalqlarining kiyim-kechaklari areal xususiyatli umumiyliklar kuzatiladi. Misol uchun, mashhur erkaklar to'ni – *cherkeskani* gruzin, *cherkas*, *kabardin*, *osetin*, *chechen*, *ingush*, *abxazlar*, shu qatorda qipchoqlar ham kiyishidi. Ammo poloves-qipchoq tilida bu kiyim *cherkaska* emas *chepgen* deb ataladi. Umuman olganda, poloves-qipchoqlari kiyimlarni nomlashda boshqa Kavkaz xalqlardan deyarli o'zlashma olishmagan. Aksincha, boshqa xalqlar turkiy so'zlardan foydalanishgan.

Misol uchun, qirimtatarlar hozirgacha ko'ylakni *ko'lmek*, ishton *so'qma*, belbog'ni *qushaq*, ko'ylak ustidan kiyiladigan yengsiz nimchani *ilik* deb atashadi. Qirimtatarlar odatda ust kiyim sifatida *kamzul* hamda *chakmon*, qishda *po'stin* yoki *yapinja*(yopinchiq) kiyishgan. Boshga kiyish uchun *qalpoq, taqiya*(do'ppi), qizil *feska* kabi bosh kiyimidan foydalanishgan. Oyoq kiyimi *choriq* yoki yengil *shippak* bo'lgan.

Ayollar sochiga *sach duasi*(tumor) taqib, ustidan qalpag' (*ayollar fesi*) qiyishgan. *Fes* qalpog'i ustidan ko'kraklarini ham qo'shib yopib turadigan katta *bash marama* (ro'mol) yopinishgan. Ro'mollarning yana *shal*(katta jun ro'mol), *chember*(yengil, yupqa ro'mol) va *bash yavluq* kabi turlari ham bo'lgan. Ayollar ustiga uzun *keten ko'lmek*(ayollar ko'ylagi), etagi va yengi uzun *anter* ko'ylakni *shalvar, duman* deb ataladigan lozim bilan kiyishgan. Ayollarning ham ustki kiyimi *to'n(qaftan), qisqa to'n, kamzul* bo'lgan. Ustki kiyim ustidan



*kokyuslik*(ko'krakpesh) taqilgan. Beliga qalin *yipshi qushaq*(enli belbog') taqishgan. Ayollarning qisqa po'stini *jubba* deb nomlangan. Ular ko'chaga chiqqanda albatta *fereje*(paranji) yopinishgan. Ayollarning oyoq kiyimlari turlicha bo'lib, ular uy ichida ko'proq uchli *papuch*, ko'chaga *qatiri*(usti teridan tayyorlangan kalishsimon oyoq kiyimi), *qatildiriq*(yog'och tufli), bayram va to'ylarda *ayaqqap*(charm tufli) kiyishgan[KadYROVA, 2016: 145].

Qumiq tilida ko'ylak – *gyoylek*, ishton – *ishtan*, kamzul – *qaptal* deb atalgan. Ustki kiyimlar *chopken*(*chepkan*) va *ton* bo'lgan. Bosh kiyimi *bashliq* va *bo'rk* deb atalgan. *Papax* deb atalgan boshkiyim ko'proq *cho'girmaga* o'xshab ketadi. Uni “*buxara ko'rpe papax*” deb atashgan. Oyoq kiyimlari *chariq* yoki *masi* deb atalgan. Ayollar ko'ylagi ikkita bo'lgan: *ich gyoylek* va *byuryushme gyoylek*. To'g'ri bichimda tikilgan ko'ylak “*duz gyoylek*”, burmalisi “*burush gyoylek*” deb atalgan. Ayollar boshiga *yavluq* deb ataladigan ro'mol yopishgan[Gadjiyeva, 1960: 106-132].

Qorachoy-balqar erkaklarining kiyimlari ham *kyoylek*(ko'ylak), *qaptal* va *chepkan*, ishton esa *kyonchek* deb atalgan. Bosh kiyimi byork bo'lib, ularning “*ko'rpa byork*”, “*kiyiz byork*” va “*buxar byork*” va “*kechegi byork*” kabi turlari bo'lgan. *Buxar byork* deb Buxoro qorako'lidan tikilgan, “*kechegi byork*” deb tungi bosh kiyimni nomlashgan. Oyoq kiyimi *churuq*(choriq) va *lisi* deb atalgan. Ayollar kiyimlarining nomlanishi ham aynan o'xshash. Faqat bosh kiyimi *yavluq*, deb atalgan[Щукин, 1913: 42-45]. Burmali ko'ylak – *jiyriq* deyilgan[Болурова, 2021: 1102-1106].

Qirimchaq va qarayimlar yahudiylik dinida bo'lsa-da, liboslari qirimtatarlarnikiga yaqin. Erkaklar kiyimlari *kolmek*(ko'ylak), *konchek*(ishton), “*arxalix*”(yengil to'n), bosh kiyimi *qalpaq*, oyoq kiyimlari *qatir*, *chariq* deb nomlangan. Ayollarning *kolmek*(ko'ylak), *konchek*(ishton) dan boshqa *charchef* nomli kiyimi bo'lgan. U katta ro'mol bo'lib ayollar boshdan oyoq to'liq o'ralishgan. Bosh kiyimi *marama*, *fesk* va “*bash-bag'i*”(ayollar sallasi) deb atalgan[Achkinazi, 2002; 599-614]. Poloves-qipchoq tillarining barchasida belbog' qushaq yoki belbau deb nomlangan. E'tibor beradigan bo'lsak, poloves-qipchoq tillaridagi kiyim-kechaklar nomlari asosan o'z qatlamga tegishli. Faqat, *yapinja*(yopinchiq), *papax*, *masi*, *byuryushme gyoylek*, *duz gyoylek*, *kyonchek* so'zlari usmonli turk tilidan o'zlashgan. Feska ham usmonli turklar orqali o'zlashgan, ammo bu so'zning etimologiyasi, ushbu bosh kiyimining vatani – Marokashning Fes shahri bilan bog'liq [Брокгауз.Ефрон, 1890—1907: 86-t]. *Anter* so'zi esa bichish usuli nomidan kelib chiqqan.

**Ornamentlar.** Poloves-qipchoq tillaridagi ornamentlarning ozroq qismida yahudiylik elementlari bor. Ayniqsa, qarayim kenessalari[Акав, 2016: 131-136] va qirimchaq *qaallari* asosan *geksagramma* (Dovud yulduzi) yoki olti gulbargli o'simlik motividagi bezaklar bilan bezatilgan. Shu bilan birga *oktagramma*(O'g'uzxon yulduzi) ham qo'llanilgan.

Asosiy bezaklar qipchoq motivlari bo'lib ular orasida *bodom*(bo'yi yetgan qiz *timsoli*), *chekchek*(ayollik), *anor*(ko'pbolalik), *lola*(yoshlik), *yuzyum yapraq* – *uzum*



yapraq, "bayterek" – "hayot daraxti", "yapiraq", "chirmaviq", "qavin til" kabi o'simlik motivli, qo'chqor muyuz(muyiz nusxa), qo'shmuyiz zuluk(jilanizi), qisqichbaqa, baliq, tue moyin – tuya bo'yin, "tue o'rkech" – tuya o'rkach, "qoyan qulaq" – quyon quloq, "buzav tis" – buzoq tishi, "qulin qulaq", "qaz ayaq" – g'oz oyog'i, "baqa ko'z", "taviq tirnaq", "at tuyaq", "bo'ri ko'z", "qiysiq ayaq" – qiyshiq oyoq, "itquyriq" – it dumi, "qoraz" – xo'roz, "shibin qanat" – chivin qanoti, "misiq iz" – mushuk izi kabi zoomorf, ichiga nuqta joylangan romb(kindik), sakkiz qirra, oltiqirra, uchburchak kabi geometrik julduz, ko'z, ay, "kunning ko'zi" – quyosh ko'zi, "kun em ay" – quyosh va oy, "ay em yulduz" – oy va yulduz kabi astral motivlar, egri tol(agridal) kabi kompozitsiyalar ustunlik qiladi.

Poloves-qipchoq tillari leksikasi juda boy va rang-barang. Unda o'zlashma qatlamga oid so'zlar ham salmoqli o'rin egallaydi. Qirimchaq va qaraim tillarida gebraizmlar, arman-qipchoq tilida oromiy va lotincha, qirimtatar, qumiq, qorachoy-balqar tillarida arab tilidan o'zlashgan diniy leksika ko'p uchraydi. Bu qaysidir jihatdan, tomiri bir bo'lgan qarindosh tillarni bir-biridan uzoqlashtiradi.

Keyingi ikki asrda poloves-qipchoq tillariga rus tilidan juda ko'p so'zlar o'zlashgan. Sovet davridan boshdan rus tilining to'liq dominantligi va poloves-qipchoq tillarining har biriga bo'lakcha alfavitlar ta'sis etilishi sababli leksikada nomutanosibliklar yuzaga kelgan. Arman-qipchoq tili o'lik tilga aylangan. Qirimchaq va qaraim tillarida so'zlashuvchilar soni juda oz qolgan va ushbu tillar hozir YUNESKONing "Yo'qolib borayotgan tillar" ro'yxatiga kiritilgan. Qirimtatar tili leksikasining 50 foizdan ortig'ini o'g'uz so'zlari egallagan. Ot, sifat, sonlar ham o'g'uzcha talaffuz qilinadi. Natijada, boshqa qipchoq xalqlarining qirimtatar tilini tushunishi qiyinlashgan.

Ammo, folklorda, xususan dostonlar, ertaklar, maqollarda, qishloq shevalarida, shu bilan birga maishiy leksikada ham qipchoq tiliga xos bo'lgan elementlar juda yaxshi saqlangan. Maishiy leksikaning 90 foizini turiy so'zlar tashkil qiladi. Ayniqsa, ornamentlarda *bodom, chechek, anor, yuzyum, yapraq, bayterek, yapiraq, chirmaviq, qavin tilik, qo'chqor muyuz, qo'shmuyiz, jilanizi, qisqichbaqa, baliq, tue moyin, tue o'rkesh, qoyan qulaq, buzav tish, qulin qulaq, qaz ayaq, taviq tirnaq, at tuyaq, bo'ri ko'z, itquyriq, shibin qanat, misiq iz, kindik, sakkiz qirra, julduz, ko'z, ay, kunning ko'zi* kabi motivlarning turkiy nom bilan saqlanib qolishi fenomenal hodisa sifatida baholanadi va bu ushbu tillarni milliy identifikatsiyalashda ham muhim o'rin tutadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мусаев К.М. Синтаксис караимского языка. – М: «Academia», 2003. – 347 с.
2. Мазинов А. С.-А., Ганиева Э. С. Бытовая лексика как вербализатор культурного кода в диалектной картине мира крымских татар. <file:///C:/Users/admin/Downloads/phil20230514.pdf>



3. Абдуллаева Э. С. Бытовая лексика кумыкского языка. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Махачкала-2013; Аппоев А.К. Основные способы образования бытовой лексики в карачаево-балкарском языке. Балтийский гуманитарный журнал. № 2(27) 2019. – С. 205-208.
4. Гаркавец А.Н. Кыпчакское письменное наследие. Том III. Кыпчакский словарь. По армянописьменным памятникам ХVIХVII веков.– Алматы: Баур; Касеан, 2010. – С.1714.
5. Гаркавец А. Codex Cumanicus. Кыпчако-половецкие тексты XIII-XIV вв.. – Алматы: Дешти Кыпчак, Баур, 2006. – С. 17.
6. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 36
7. <https://www.academia.edu/714471283>
8. Кудабергенев С. Орхун-Енесей битиктери. – Фрунзе: “Илим”, 1982. – Б. 213.
9. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 339.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. III жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2008. – Б. 174.
11. Номинханов Ц. Д. Русско-хакасский словарь. – Абакан: Хакаское областное национальное издательство, 1948. – С. 24.
12. Алтайско-русский словарь. – Горно-Алтайск, 2018. – С. 127.
13. Атаниязов С. Слова, означающие футляр для пиал в диалектах туркменского языка. Журнал “Советская тюркология» №1. Баку. 1985.
14. Гаркавец А.Н. Казахское евангелие 1901. – Алматы: Баур, 2021. – С. 151.
15. Гаркавец А.Н. Кыпчакское письменное наследие. Том III. Кыпчакский словарь. По армянописьменным памятникам ХVIХVII веков.– Алматы: Баур; Касеан, 2010. – С.204, 367, 1564.
16. Отаров И. М. Лексикология карачаевобалкарского языка. – Нальчик: «Эльбрус»,1996. – С. 33.;
17. Махиева Л.Х. Проблемы лексикографического описания кухонной посуды и утвари в карачаево-балкарском языке. Доклады Башкирского университета. 2024. Том 9. №2. – С. 46-52.
18. Русско-крымскотатарский словарь. <https://classes.ru/all-crtatar/dictionary-russian-crtatar-term-6883.htm>
19. Ачкенази Ш.Е. Миреев В.А., Казаченко Б.Н. Крымчакская лексикография, грамматика и фразеология. – Симферополь: ИТ “Ариал”, 2019. – С. 178.
20. Мусаев К.М. Синтаксис караимского языка. – М: «Academia», 2003. – С. 155, 206, 225.
21. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские лексические основы на буквы «Л», «М», «Н», «П», «С» / Э. В. Севортян. - М. : Наука, 2003. - 474 с.
22. Кадырова А.Я. Синтез традиций и современности в крымскотатарском костюме. Журнал Таврический научный обозреватель. №11(16). 2016



23. Гаджиева С.Ш. Материальная культура кумыков XIX-XX в. – Махачкала: Дагестанское книжное издательство, 1960. – С.106-132.
24. Щукин И.С. Материалы для изучения карачаевцев. Из “Русского Антропологического Журнала”, 1913 г, №№ 1—2. – М: Типография П. П. Рябушинского, 1913. – С. 42-45
25. Болурова А.Н. Особенности традиционного костюма карачаево-балкарского народа. Журнал “Манускрипт”, 2021. Том XIV. №6. – С. 1102-1106.
26. Ачкинази И.В. Знаковые элементы традиционной одежды крымчаков XIX-XX вв, изданная в 2002 году в Симферополе в сборнике научных трудов «Материалы по археологии, истории и этнографии Таврии. Вып. IX. — С. 599-614.;
27. Усиенова Э. А. Женская национальная одежда народов Крыма (на примере крымских татар и караимов) <https://www.teacherjournal.ru/categories/3/articles/361>.
28. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона// Феска, головной убор: 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
29. Акав. Е.С. Караимская кенаса: структура интерьера, ритуальная атрибутика и предметы литургии. Журнал Вопросы крымскотатарской филологии, истории и культуры 2016. – С .131-136.



## MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
<b>I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI</b>		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
<b>II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.</b>		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
<b>III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI</b>		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
<b>IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI</b>		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
<b>V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI</b>		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafrö 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774